

QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TARKIBIY-MIQDORIY O'ZGARISHLAR TAHLILI

Otaxonova Odinaxon Inomovna

Toshkent davlat agrar universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasida qoramolchilikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tarkibiy va miqdoriy o'zgarishlar, olimlar tomonidan ilgari surilgan taklif va tavsiyalar, shuningdek, sohada olib borilayotgan islohotlar hamda chorvachilikning rivojlanish tendensiyalari statistik jihatdan tahlil qilingan. Tarmoqda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari va istiqbolli strategik yo'nalishlar bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qoramolchilik, mahsulot, tahlil, rivojlantirish, omillar, samaradorlik, ko'rsatkichlar, yetishtirish.

Аннотация

В статье статистически проанализированы структурные и количественные изменения, осуществляемые в Республике Узбекистан в направлении развития скотоводства, предложения и рекомендации, выдвинутые учеными, а также проводимые реформы и тенденции развития животноводства. Приведены практические рекомендации по применению современных технологий в отрасли и перспективным стратегическим направлениям.

Ключевые слова: скотоводство, продукция, анализ, развитие, факторы, эффективность, показатели, выращивание.

Abstract

The article provides a statistical analysis of the structural and quantitative changes in the development of cattle breeding in the Republic of Uzbekistan, proposals and recommendations of scientists, ongoing reforms, and trends in the development of livestock breeding. Recommendations on the use of modern technologies in the network and promising strategic directions are presented.

Keywords: cattle breeding, product, analysis, development, factors, efficiency, indicators, production.

KIRISH

Jahonda aholi sonining ortib borishi davlatlar oldiga asosiy vazifa sifatida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish zaruratini qo'yadi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari — dehqonchilik va chorvachilikda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali hosildorlik va mahsuldorlikning yuqori o'sishiga erishiladi. Har bir davlatning ustuvor maqsadi — iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish bilan birga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish va bandligini ta'minlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasida agrar sohadagi islohotlarni yanada jadallashtirish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlar ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda. Bunga erishish uchun oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, sifatini yaxshilash,

yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, mehnat resurslarining samaradorligini oshirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantirish, zamonaviy mulkchilik shakllari — fermer, dehqon xo‘jaliklari, klaster va kooperatsiya tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lgan chorvachilikda qoramol sonini ko‘paytirish va uning mahsuldorligini oshirishda resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati mavjud. Shu bois, O‘zbekiston – 2030 strategiyasining 54-maqsadida qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish orqali chorvachilik sohasida ozuqa bazasini mustahkamlash, yaylov yerlardan unumli foydalanishni ta‘minlash vazifasi belgilangan [1]. Chorvachilikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta‘minlash hamda oziq-ovqat xavfsizligida aholini sut va go‘sh t mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish imkoniyati yaratiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi — aholi daromadlarini oshirish, farovonligini ta‘minlash va yashash turmush tarzini yuksaltirishdan iborat. Bunga erishishda chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish, sifatli oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hamda sanoatni xomashyo bilan ta‘minlash dolzarb masala sanaladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-fevralda o‘tkazilgan “Qishloq xo‘jaligida unumdorlik va manfaatdorlikni oshirish choralari to‘g‘risida”gi videosektor yig‘ilishida chorvachilik, ipakchilik va baliqchilik tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash choralari belgilab berilgan. Jumladan, chorva kompleksi tashkil etish, qoramol xarid qilish, omixta yem ishlab chiqarish uchun milliy valyutada 17 foizdan, 3 yillik imtiyozli davr bilan 10 yil muddatga kredit ajratilishi hamda chorva xo‘jaliklarini aylanma mablag‘ bilan ta‘minlash uchun 1 trillion so‘m imtiyozli kredit yo‘naltirilishi, shuningdek, foiz stavkasi 18 foizdan oshgan qismining Tadbirkorlik jamg‘armasi tomonidan qoplab berilishi ta‘kidlangan [2]. Bu holatlar aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashga doir belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda har bir oilaning sog‘lom hayot tarzini yuritishida qoramolchilik mahsulotlariga ehtiyoj mavjud bo‘lib, tarmoqning rivojlanishi inson salomatligi uchun foydali hisoblangan oziq-ovqat mahsulotlarini ratsionda bo‘lishini ta‘minlaydi.

Xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari o‘rganilganda, F. Muhammad o‘z tadqiqotida rivojlanayotgan mamlakatlarda qoramolchilik aholi farovonligida muhim rol o‘ynashini ta‘kidlagan. Uning fikricha, qoramolchilik mahsuldorligiga asosan iqlim o‘zgarishlari salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, shuningdek, samarali va zamonaviy rivojlanish strategiyalarining mavjud emasligi yoki qabul qilinmaganligi natijasida tarmoqqa investitsiya jalb qilish, iqlim o‘zgaruvchanligiga moslashish hamda aholi bandligini ta‘minlashda qoramolchilikning ta‘sirini baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur [3]. Mahsuldorlikka iqlim o‘zgarishining ta‘siri yuqori bo‘lib, ozuqa bazasining sifati, tabiiy omillar va geografik joylashuv muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, qoramollarni iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish jarayonini samarali tashkil etish, strategik rejalarni

ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish salbiy omillarni bartaraf etishda muhim hisoblanadi.

Chorvachilik tarmogʻida jahonda yetakchi hisoblangan Gollandiya ham qoramolchilikning samaradorligini oshirish boʻyicha katta tajribaga ega. Wageningen universiteti olimlari — Riko Ihle, Lisbet Dris, Roel Jongenel, Tomas Venera va Yustus Vesseller tomonidan tayyorlangan “Yevropa Ittifoqi qoramolchilik sektori agrar qoʻmita uchun tadqiqotlar: sut va goʻsht yoʻnalishi, muammolar va imkoniyatlar” nomli oʻquv qoʻllanmasida Yevropa Ittifoqi qishloq xoʻjaligida qoramolchilik sektori katta iqtisodiy ahamiyatga ega ekani, yaqin kelajakda sut va goʻsht mahsulotlariga boʻlgan talab ortishi, fermer xoʻjaliklarini tabaqalanishiga yoʻl qoʻymaslik, eksport salohiyatini kengaytirish, qoramolchilikni qoʻllab-quvvatlash hamda ekologik muammolar va atrof-muhit masalalariga eʼtibor qaratish zarurligi qayd etilgan [4]. Dunyo boʻyicha sut va goʻsht mahsulotlariga talab yuqori boʻlgani bois, davlatlar mavjud xavf-xatarlarning oldini olish, mavjud resurslarni toʻgʻri baholash va chorvachilikni barqarorlashtirish choralarini koʻrishi lozim. Bunda qoramolchilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, isteʼmolchilar va aholi faol ishtirok etishi, shuningdek, biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan ekologik muammolarni bartaraf etishga hissa qoʻshishi talab etiladi.

Oʻzbekistonda agrar sohani rivojlantirishda chorvachilik tarmogʻining asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlgan qoramolchilik orqali aholi isteʼmoli uchun zarur boʻlgan goʻsht va sut mahsulotlari yetishtiriladi. Shu sababli, qoramolchilikni ilmiy asosda rivojlantirish, xorijdan keltirilayotgan zotdor qoramollarning samaradorlik koʻrsatkichlarini baholash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatiga ozuqaning taʼsirini aniqlash hamda qoramolchilik xoʻjaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda mamlakatimiz olimlari tomonidan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Jumladan, N.S. Xushmatov va S.S. Abdullayeva tomonidan dehqon va fermer xoʻjaliklarida ekologik toza sut yetishtirish va uni bozorga taklif qilish tizimini rivojlantirishga oid uslubiy tavsiyanomada ekologik toza qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga ehtiyojni yuzaga keltiruvchi sabablar — texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, sanoat koʻlamining kengayishi, insoniyatning genetik modifikatsiya, biotexnologiya hamda kimyoviy vositalar orqali oʻsimlik rivojlanishiga taʼsir oʻtkazishdagi bilimlari ortib borayotgani va oziq-ovqat mahsulotlarida inson salomatligiga zarar yetkazuvchi kimyoviy birikmalar sonining koʻpayib borayotgani taʼkidlangan [5].

Aholi daromadlarining oshishi ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlariga talabni orttiradi. Ayniqsa, sut va goʻsht mahsulotlarini yetishtirishda qoramolchilik xoʻjaliklari ozuqa sifati va ratsioniga alohida eʼtibor qaratishi, kimyoviy vositalardan foydalanmaslik chorasini koʻrishi, texnik va texnologik yangilanishlarni joriy etishi,

shuningdek, xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi talab etiladi.

U.M. Qo‘chchiyev o‘z izlanishlarida chorvachilikda xizmatlarga bo‘lgan bozor talabini — mehnat va vaqt sarflari, chorvaning nasllilik darajasi, mahsulotning tovarliligi, xo‘jalikning texnik-texnologik ta‘minlanish darajalarini hisobga olgan holda aniqlash uslubiy yondashuvlarini taklif etgan. Shuningdek, hududiy potensial bozor talab hajmini aniqlashda xo‘jaliklarning xizmat markazlariga nisbatan geografik joylashuvi hamda naslli mollar ulushiga ko‘ra to‘g‘rilovchi koeffitsiyentlardan foydalanilgan. U, shuningdek, transaksion xarajatlarni kamaytirish va sut mahsulotlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirishga qaratilgan hududiy klasterlar tashkil etish g‘oyasini asoslagan [6].

U.N. Sadullayev o‘z ilmiy-tadqiqot ishlarida go‘sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiyalashda “ilmiy hajmdorlik darajasi”ni — ilmiy tadqiqotlarga sarflangan xarajatlar miqdori, ilmiy salohiyatli kadrlar ulushi va texnik ta‘minot darajasidan foydalanib aniqlash usulini taklif etgan. U, shuningdek, ushbu subyektlar faoliyatini modernizatsiyalashni davlat tomonidan subsidiya berish, valyuta kursini targetlash, revolver va soliq kreditlari orqali rag‘batlantirish hamda chorvachilikda aqlli qurilmalar ishlab chiqarish va joriy etishni qo‘llab-quvvatlash uchun “Aqlli chorvachilik tizimini qo‘llab-quvvatlash markazi”ni tashkil etishni va uni venchur fondlar orqali moliyalashtirishni taklif etgan [7]. Davlat tomonidan ushbu yo‘nalishdagi barcha tadbirlarni qo‘llab-quvvatlashning me‘yoriy-huquqiy asoslari shakllantirilgan bo‘lib, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jaligi subyektlarining iqtisodiy holatini yaxshilash zaruriyati dolzarb masalalardan biridir.

Shunday ekan, respublikada xorijdan olib kelinayotgan zotdor va naslli qoramollarni jalb etishda xalqaro kredit liniyalaridan foydalanish va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berilmoqda. Har bir sohaga oid uyushmalar, klasterlar, kooperatsiyalar, assotsiatsiyalar, markazlar tashkil etilishi orqali servis va xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va hamkorlikka asoslangan tizim yaratish maqsadga muvofiqdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda chorvachilikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan qoramolchilik xo‘jaliklarini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan tarkibiy va miqdoriy o‘zgarishlarni tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma‘lumotlarni guruhlash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini iqtisodiy-tashkiliy qo‘llab-quvvatlash ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga va tarkibiy-miqdoriy o‘zgarishlarni

amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Paxta va g'alla ekinlari o'rniga yuqori rentabellikka ega ekinlarni yetishtirish, chorvachilik uchun ozuqa ekinlari maydonlarini kengaytirish hamda ekzotik o'simliklarni yetishtirish va parvarishlash uchun erkinlik berildi. Ayniqsa, hosildorligi yuqori bo'lgan ozuqabop ekinlarni ekish va yaylovlardan samarali foydalanish uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

Shunga qaramay, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan talabni to'liq qondira olmayapti, bu esa mamlakatda importning yillar davomida ortib borishiga olib kelmoqda.

Qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarini barqaror rivojlantirish oziq-ovqat xavfsizligi va aholining bandligini ta'minlash imkonini beradi. So'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy qiymati 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 187,1 %ga oshib, 404648,6 milliard so'mni tashkil etdi. Xuddi shu davrda chorvachilik mahsulotlari qiymati 193,5 %ga, dehqonchilik mahsulotlari qiymati esa 181,1 %ga ko'paygan. Bu holatlar sohada izchil islohotlar olib borilayotgani, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun investitsiyalar jalb qilinayotgani, eksport hajmi ortayotgani, import qisqarayotgani va erkin bozor munosabatlari shakllanib borayotganidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning asosiy ko'rsatkichlari¹

Ko'rsatkichlar	Yillar					2023-yilda 2019-yilga nisbatan, o'zgarishi %
	2019	2020	2021	2022	2023	
Qishloq xo'jaligi ekinlari ekin maydoni, ming gektar	3309,4	3396,1	3340,6	3353,3	3353,3	101,3
Qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd. so'm shu jumladan:	216283,1	250250,6	303415,5	345191,7	404648,6	187,1
dehqonchilik	111904,8	123858,8	152130,4	177962,7	202679,1	181,1
chorvachilik	104378,3	126391,8	151285,1	167229,0	201969,5	193,5
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda. shu jumladan:	103,3	102,7	103,9	103,6	103,9	100,6
dehqonchilik	104,8	103,2	104,3	103,8	104,2	99,4
chorvachilik	101,6	102,1	103,5	103,3	103,7	102,1

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan bosqichma-bosqich bozor islohoti yo‘liga o‘tish natijasida kichik biznes, xususiyl tadbirkorlik va fermerlik harakatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar hamda qulay sharoitlar yaratilgan. Biroq, chorvachilik tarmog‘ida mahsulot yetishtirish ko‘rsatkichlari jahon bozori konyunkturasining keskin o‘zgarishi va globallashuv sharoitida raqobatning tobora kuchayib borayotgani fonida O‘zbekistonda ushbu sohaga yangicha yondashuv va mutlaqo yangi tamoyillar asosida barqaror hamda jadal rivojlanishni ta‘minlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Chorvachilikda yetishtirilgan mahsulotlar umumiy hajmi o‘tgan yillar davomida bir necha barobarga oshgan bo‘lib, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 202335,3 milliard so‘mni tashkil etgan (2-jadval).

2-jadval

**Chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmi (yillik) ko‘rsatkichlari
(mlrd.so‘m)¹**

№	Hududlar nomi	Yillar					2023-yilda 2019-yilga nisbatan o‘zgarishi %
		2019	2020	2021	2022	2023	
	O‘zbekiston Respublikasi	104378,3	126392,8	151285,1	167229,0	202335,3	193,8
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4260,2	5241,9	6111,4	6861,6	8293,6	194,7
2	Andijon viloyati	7760,4	9384,9	11635,3	13213,5	16421,7	211,6
3	Buxoro viloyati	9719,1	12229,4	14429	16019,2	19317,5	198,8
4	Jizzax viloyati	8213,3	10035,8	12708,5	13430,5	16342,9	199,0
5	Qashqadaryo viloyati	11955	14541,5	16943,6	18974,3	23548,8	197,0
6	Navoiy viloyati	6025,7	7320,6	9584	9884,6	11869,9	197,0
7	Namangan viloyati	6488,4	8094,5	9243,8	10279,5	12371,7	190,7
8	Samarqand viloyati	12934,1	14690,3	17625,8	18956,1	22694,8	175,5
9	Surxondaryo viloyati	8125,7	9727,8	11244,4	12792,3	15971,3	196,6
10	Sirdaryo viloyati	3046,4	3577,6	4188,5	4651,8	5692,5	186,9
11	Toshkent viloyati	10419,9	13044,1	15572,9	16727,4	20347,5	195,3
12	Farg‘ona viloyati	7847,9	9551,2	11335,7	12970,4	15199,8	193,7
13	Xorazm viloyati	7582,2	8952,2	10662,2	12467,8	14263,3	188,1
14	Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0,0

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish umumiy hajmining oshib borishi va tarmoqda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida 2023-yilda 2019-yilga nisbatan ishlab chiqarish hajmi 193,8 %ga o‘sgani

¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida hisoblangan.

ijobiy natija hisoblanadi. Hududlar kesimida Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bo'yicha yetakchi hududlar qatoridan o'rin olgan. Shu bilan birga, bizning tadqiqot obyekti hisoblangan Andijon viloyatida ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 211,6 %ga oshgan.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha izchil choratadbirlarning amalga oshirilishi, shuningdek, davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlashning yo'lga qo'yilgani chorva mollari bosh sonining ortishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirish imkoniyatining kengayishiga xizmat qilmoqda.

Yirik chorvachilik fermer xo'jaliklari tomonidan xorijdan nasldor qoramollar olib kelinmoqda. Ularni parvarishlashda zarur texnika va texnologiyalarni sotib olish uchun subsidiya mablag'lari ajratilmoqda. O'tgan davr mobaynida barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 14 142,4 ming boshga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilda 2018-yilga nisbatan 111,1 %ga oshgan.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinadigan bo'lsa:

- Fermer xo'jaliklarida qoramollar soni 162,7 %ga,
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 107,8 %ga,
- Qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda esa 147,1 %ga ko'paygan (3-jadval).

3-jadval

Barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh sonining o'zgarish dinamikasi to'g'risida ma'lumot (ming,bosh)¹

Ko'rsatkichlar	Yillar bo'yicha						2023-yilda 2018-yilga nisbatan o'zgarishi (%da)
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Barcha toifadagi xo'jaliklar	12726,6	12968,3	13188,7	13555,8	13857,6	14142,4	111,1
<i>Shu jumladan</i>							
Fermer xo'jaliklari	634,3	684,6	779,9	885,3	951,3	1031,8	162,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	11911,8	12116,1	12233,3	12466,3	12664,9	12845,1	107,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	180,5	167,6	175,5	204,2	241,4	265,5	147,1

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan..

Fermer xo‘jaliklarida chorva mollari bosh sonining ortishi bilan mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash va saqlash yo‘nalishlarida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa tarmoqda iqtisodiy barqarorlikka erishish imkonini yaratmoqda. Qoramolchilik tarmog‘ida zamonaviy bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida faoliyatni tashkil etishni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilmoqda. Chunki bozorning talab va taklif qonunlari asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z faoliyat yo‘nalishlarini belgilashi bugungi zamon talabi hisoblanadi. O‘zbekistonda chorva mollarini boqish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud bo‘lib, faqatgina ulardan samarali foydalanish talab etiladi.

Qoramolchilik xo‘jaliklarida chorva bosh sonining oshishi va ularning faoliyatini samarali tashkil etishda ozuqa bazasi bilan ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilishi zarur. Chorvachilik sohasiga innovatsion usullarni joriy etish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, chorvachilik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevral PQ–120-son “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori¹ [8] ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-avgust PQ–285-son “Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori² qabul qilingan [9].

Mazkur qaror bilan mamlakatda chorva bosh sonini aniqlashning zamonaviy mexanizmlari, hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro‘yxatga olish va kuzatish tizimi amaliyotga joriy etildi. Bu orqali qoramolchilik tarmog‘i faoliyatini tahlil qilish, xo‘jaliklarning mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini baholash, moliyaviy natijalar va ishlab chiqarish foydalilik darajasini monitoring qilish imkoniyati vujudga keldi.

Qoramolchilik tarmog‘ida yetishtiriladigan asosiy mahsulotlardan biri sut hisoblanadi. Aholining kunlik iste‘mol qilinadigan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini mamlakatimizdagi xo‘jaliklar to‘laqonli ta‘minlay olayaptimi degan savol hanuz dolzarbdir. Sut mahsulotlari so‘nggi yillarda o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lishiga qaramay, aholining ortib borayotgan soni fonida ichki iste‘mol talabi to‘liq qondirilmayapti. Natijada sut va sut mahsulotlari Belorussiya, Qozog‘iston kabi davlatlardan import qilinmoqda. Import qilinayotgan mahsulotlarning bozorlarda ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ularning inson salomatligi uchun foydaliligi bo‘yicha nazorat talablari qayta ko‘rib chiqilishini taqozo etadi.

Shuningdek, respublikada qoramolchilik uchun ozuqa bazasining yetarli darajada shakllanmaganligi mahsulot tannarxiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu holat esa qoramolchilik subyektlarining import mahsulotlar bilan raqobatlashish imkoniyatlarini pasaytirmoqda. Shu sababli, chorvachilikda ozuqa bazasini mustahkamlash, lalmikor

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevral PQ–120-son “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-5858728>

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-avgust PQ–285-son “Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6583141>

dehqonchilikni rivojlantirish, almashlab ekish tizimini ilmiy asosda tashkil etish hamda hosildorligi yuqori bo‘lgan ekin maydonlarini kengaytirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko‘plab sohalar, jumladan, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar samarasi bilan bevosita bog‘liqdir. Qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishini ko‘paytirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, aholi farovonligini oshirishda chorvachilik, ayniqsa qoramolchilik yetakchi tarmoq sifatida alohida o‘rin tutadi. Qoramolchilik xo‘jaliklarini rivojlantirishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlar e‘tiborga olinishi lozim:

- Istiqbolda qoramolchilikni tashkil etish va rivojlantirishda ekologik tizimni (respublika, viloyat, tumanlar kesimida) shakllantirish, yem-xashak bazasini mustahkamlash va sifatini yaxshilash;
- Aholini o‘zini o‘zi band qilishi uchun yaylov yerlarini doimiy yoki vaqtincha foydalanish huquqi asosida ajratish tizimini joriy etish;
- Tarmoqning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, servis xizmatlari sifatini va assortimentini oshirish;
- Naslchilikni tubdan yaxshilash, modernizatsiya qilish va xo‘jaliklarga zooveterinariya xizmatlarini kengaytirish;
- Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish, qayta jihozlash va sohaga investitsiyalar jalb qilishni rag‘batlantirish;
- Chorva mollarini yuqumli kasalliklarga qarshi emlash va kasalliklar bilan kurashishda davlat tomonidan moliyaviy yordam ko‘rsatish;
- Naslchilik qoramolchilikni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish va rivojlantirish;
- Ozuqa ekinlarini joylashtirishda optimal nisbatlarga erishish, lalmi yerlardan chorva uchun ozuqa yetishtirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- Yaylovlardan foydalanishni davlat boshqaruvidan mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv tizimiga o‘tkazish;
- Xoriждан naslli qoramollar olib kelayotgan xo‘jaliklar uchun subsidiya, bojxona to‘lovlari va boshqa imtiyozlar mexanizmlarini soddalashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Qishloq xo‘jaligida unumdorlik va manfaatdorlikni oshirish choralari to‘g‘risida” o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi. 2024-yil 12-fevral. “Xalq so‘zi” gazetasi 13.02.2024-y., №32 (8655).

3. F.Muhammad and others. Assessing small livestock herders’ adaptation to climate variability and its impact on livestock losses and poverty // *Climate Risk Management* 34 (2021) 100358. 12 p.

4. Wageningen University, The Netherlands: Rico Ihle, Liesbeth Dries, Roel Jongeneel, Thomas Venus, Justus Wesseler. Research for agri committee the eu cattle sector: challenges and opportunities — milk and meat // Manuscript completed in February 2017 © European Union, 2017. 176 p.

5. Xushmatov N.S., Abdullaeva S.S. Dehqon va fermer xo‘jaliklarida ekologik toza sut yetishtirish va bozorga taklif etish tizimini rivojlantirishdagi ilmiy-amaliy masalalarga doir uslubiy tavsiyalar. – T., 2014, 20-b.

6. Qo‘chchiyev U.M. Chorvachilik xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish // 08.00.04-Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti ixtisosligi. diss. avtoreferat. i.f.d. (DSc) – T.: 2020-y. 82 b.

7. Sadullayev U.N. Go‘sh va sut yetishtirish sohasini modernizatsiyalashni rag‘batlantirishning asosiy yo‘nalishlari. diss. PhD. – T.: 2020-y.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevral PQ-120-son “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-5858728>

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-avgust PQ-285-son “Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/6583141>

10. www.stat.uz — O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi sayti.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**